

O'zgaruvchan tokning quvvati, ishi. Tok va kuchlanishning effektiv qiymatlari.

1. O'zgaruvchan tokning siklik chastotasi 1000π rad/s bo'lsa, uning davri va chastotasi qanday? A) 0,005 s; 200 Hz. (B) 0,002 s; 500 Hz. C) 0,02 s; 50 Hz. D) 0,001 s; 1000 Hz. E) 0,01 s; 100 Hz.
2. Tebranish konturidagi elektromagnit tebranishlar chastotasi 105 Hz. Tebranishlar davri qanday(μ s) A) 104. B) 1000. C) 100. (D) 10. E) 1.
3. Tebranishlar konturi kondensatori zaryadining vaqtga bog'lanishi grafikda tasvirlangan. Zaryad tebranishlarning chastotasi qanday (Hz)? A) 5. (B) 2,5. C) 3,3. D) 10. E) TJY.
4. Tebranish konturidagi tebranishlar davri ifodasini toping. A) $T=2\pi\sqrt{1/g}$. B) $T=\sqrt{2\pi/\omega}$. (C) $T=2\pi\sqrt{LC}$. D) $T=\sqrt{2\pi LC}$. E) $T=\sqrt{t/n}$.
5. Ideal tebranishlar konturida hosil bo'ladigan tebranishlarning siklik chastotasi formulasini ko'rsating. A) $\omega = \sqrt{LC}$. B) $\omega = \sqrt{L/C}$. C) $\omega = \sqrt{C/L}$. D) $\omega = LC$. (E) $\omega = 1/\sqrt{CL}$.
6. Quyida keltirilgan ifodalardan qaysi biri tebranishlar konturidagi tebranishlarning doiraviy chastotasi uchun o'rinli? (A) $1/\sqrt{LC}$. B) $\pi/\sqrt{CL}$. C) $2\pi/\sqrt{LC}$. D) L/q . E) $2\pi\sqrt{q/L}$.
7. Tebranishlar konturidagi tebranishlar davri qanday hollarda oshadi: 1) elektr sig'imi oshganda; 2) elektr sig'imi kamayganda; 3) induktivlik oshganda; 4) induktivlik kamayganda? A) 2; 3. B) 2; 4. C) 1; 4. (D) 1; 3. E) 4.
8. Tebranishlar konturi induktivligi 4 marta oshirilsa, konturdagi tebranishlar chastotasi qanday o'zgaradi? A) o'zgarmaydi. B) 4 marta kamayadi. C) 4 marta ortadi. (D) 2 marta kamayadi. E) 2 marta ortadi.
9. Kondensatorning elektr sig'imi 2 marta ortganda tebranishlar konturidagi erkin tebranishlar davri qanday o'zgaradi? (A) $\sqrt{2}$ marta ortadi. B) $\sqrt{2}$ marta kamayadi. C) 2 marta ortadi. D) 2 marta kamayadi.
10. Tebranishlar konturining induktivligini va sig'imini 4 marta oshirsak, konturdagi tebranishlar davri qanday o'zgaradi? A) o'zgarmay qoladi. B) 4 marta kamayadi. C) 16 marta oshadi. D) 16 marta kamayadi. (E) 4 marta oshadi.
11. Tebranishlar konturidagi induktivlik 2 marta kamaytirilib, kondensator sig'imi 8 marta oshirilsa, erkin elektromagnit tebranishlar chastotasi qanday o'zgaradi? (A) 2

marta kamayadi. B) 2 marta oshadi. C) 4 marta kamayadi. D) 4 marta oshadi. E) 16 marta oshadi.

12. Tebranishlar konturidagi kondensator sig'imi 4 marta ortsa, tebranishlar chastotasi qanday o'zgaradi? A) $\sqrt{2}$ marta ortadi. B) 2 marta ortadi. (C) 2 marta kamayadi. D) 4 marta ortadi. E) 4 marta kamayadi.

13. Tebranish konturidagi kondensatorning sig'imi 4 marta kamaytirilsa, elektromagnit tebranishlar chastotasi qanday o'zgaradi? A) o'zgarmaydi. B) 2 marta kamayadi. (C) 2 marta ortadi. D) 4 marta kamayadi. E) 4 marta ortadi.

14. Radiopriyomnikning qabul qilish chastotasini 2 marta oshirish uchun uning tebranish konturidagi kondensator sig'imini qanday o'zgartirish kerak? A) 2 marta oshirish. (B) 4 marta kamaytirish. C) 4 marta oshirish. D) 2 marta kamaytirish. E) chastota kondensator sig'imiga bog'liq emas.

15. Tebranish konturining induktivligi 4 marta ortganda, tebranish davri 2 marta ortishi uchun kontur sig'imini qanday o'zgartirish kerak? A) 4 marta kamaytirish. B) 2 marta oshirish. C) 2 marta kamaytirish. D) 4 marta oshirish. (E) o'zgartirish kerak emas.